

NEMIS TILI NUTQ MATERIALLARI VA NUTQ FAOLIYATLARI

ASOSLARINI O'RGATISH

Andijan davlat chet tillari instituti

nemis tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrasi kata o'qituvchisi (PhD) N. M. Qodirova

G'ulomqodirova M.

403-kurs talabalar

Yunusbekova M.

403-kurs talabalar

Nutk, faoliyatining asosiy til materiali o'z ichiga fonetik, grammatik, leksik materiallarni oladi. Keyingi paytlarda orfografiya ham kiritilyapti, lekin u dasturda yo'q. Til materiali nemis tilini o'rgatishda muxim o'rinni tutadi. U hamma nutq, faoliyatlar uchun asosiy material xisoblanadi. Usiz biz nutq faoliyatini egallay olmaymiz yoki uni amalga oshira olmaymiz. Til, nutq vositalariga tilning tovush tizimini, oxangini, grammatik tuzilishini, leksikasini kirgizish mumkin.

O'rta maktab dasturi nutq faoliyatlarini amalga oshirish uchun fonetik yoki talaffuz, grammatik, leksik materiallarni belgilab ko'rsatgan. Bu til materiallari tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuvning muhim qismidir. Til materiallarni o'rgatishda muktab, akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari sharoitini, materialarning xususiyatini, metodik tomonini xisobga olish zarur.

O'quvchi, talaba nutq, faoliyatini egallashi, bajarishi uchun nemis tili leksikasini, grammatikasini, nemis tili fonetik tizimi tanlab olinib o'rgatiladi. Tanlashning sabablari quyidagilar:

Birinchidan, til materiallari ko'p. Ularning hammasini o'rgatish qiyin. Xatto maxsus chet tili institutlarida ham ularning hammasini o'rgatib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, o'rta umumta'lim beriladi. Buning uchun esa hamma til materiali kerak emas. Uchinchidan, vaqt kam (dars soati kam).

To'rtinchidan, metodika ilmiy nuqtai nazaridan ko'p til materialini o'rgatish o'rniiga maxsus maqsad bo'yicha tanlagan oz sonli til materiali orqali nutq faoliyatini o'rgatish osondir. Bu yerda bir necha til materiali orqali nutq faoliyatini o'rgatish mumkin. Bu yerda bir nechta til materiali o'rniiga qo'llash mumkin bo'lgan bitta til materiali tanlanib, uni nutq faoliyatida ko'proq faollashtirish ko'zda tutiladi. Natijada nutq, faoliyatini o'stirishga vaqt ortadi.

Beshinchidan, til materialini tanlashda faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatini xisobga olishi zarur.

Til materiallarning xususiyatini, ularni faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatlari xisobga olinib, ular maxsus tamoyillar asosida tanlanadi. Har bir til materiallari o'zining tanlash tamoyillariga ega.

O'quvchi yoki talaba nemis tili materialini o'rganayotganda o'zbek, rus tillarining xususiyatlari unga ta'sir qiladi. Bunga ahamiyat berilishi va xisobga olish zarur. Bu ta'sir ijobiy va salbiy bo'ladi.

1. Faqat chet tilining salbiy, ijobiy ta'siri.
2. Faqat ona tilining salbiy, ijobiy ta'siri.
3. Faqat rus tilining salbiy, ijobiy ta'siri.
4. Ona tili, rus tilining ijobiy, salbiy ta'siri
5. Ona tili, rus tili va nemis tillarning ijobiy, salbiy ta'siri.

O'quvchi, talaba yuqoridagi tillarning ta'sirida faollashgan til malaka va ko'nikmalarni xisobga olmay nemis tiliga ko'chiradi. Ilmiy tilda «ko'chirish» deyiladi. Tillar ijobiy ta'sirini transpozitsiya, salbiy ta'sirini interferentsiya deyiladi. O'qituvchi til materiallarini ijobiy, salbiy ta'sirini interferentsiyani keltirib chiqaruvchi manbasini aniqlab oldini olishi kerak. Ijobiy ta'siridan unumli foydalansa bo'ladi.

Til materiallari to'qnashuvidan kelib chiqadigan salbiy ta'sirni, interferentsiyani xisobga olib professor J. Bo'ronov 3 xil interferentsiyani mavjudligini ko'rsatdi.

Fontetik interferentsiya.

Gramatik interferentsiya.

Leksik interferentsiya.

Har bir til materiali O'zini o'rgatish xususiyatlariga, metod, yo'l, usullariga, tanlash tamoyillariga, interferentsiyasiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. A. Нурмонов Танланган асарлар 2 жилд Андижон 2012.
2. S.Saidaliyev "Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar" Namangan 2004
3. A.A.Miralyubov, I.B.Rahmonov "O'rta mакtabda chet tillar o'qitishning umumiyl metodikasi" T.1974.